

ERKIN VOHIDOVNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

E'zoza Hosiljonova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Erkin Vohidov she'riyatida so'z qo'llash mahorati masalasi tahlil qilinadi. Shoir ijodida so'z tanlash, ularni mazmuniy uyg'unlik asosida qo'llash, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish xususiyatlari she'riy misollar asosida yoritiladi. Xususan, shoirning sevgi, tabiat va insoniy kechinmalar tasvirida qo'llagan obrazli ifodalari, tashbeh, metafora, tanosub kabi badiiy san'atlar orqali fikrning badiiy ta'sirchanligi oshirilgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, shoirning semantik jihatdan o'zaro bog'liq so'zlarni tizimli ravishda qo'llashi uning poetik uslubining muhim jihatlaridan biri ekani asoslanadi. Tadqiqot natijasida Erkin Vohidov ijodida so'z tanlash va badiiy ifoda imkoniyatlaridan mohirona foydalanish o'zbek she'riyatining rivojiga muhim hissa qo'shgan xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar. Erkin Vohidov, poetik uslub, badiiy tasvir vositalari, tashbeh, metafora, tanosub, poetik tafakkur, obrazlilik.

Annotation. This article examines the issue of word usage mastery in the poetry of Erkin Vohidov. The study explores the poet's skill in word selection, their application based on semantic harmony, and the features of using artistic expressive devices in his poetry, supported by poetic examples. In particular, it demonstrates how the figurative expressions, similes, metaphors, and semantic associations employed in the depiction of love, nature, and human emotions enhance the artistic impact of his works. Additionally, the research substantiates that the systematic use of semantically interconnected words constitutes an essential aspect of his poetic style. The findings conclude that Vohidov's mastery of word choice and artistic expression significantly contributed to the development of Uzbek poetry.

Keywords. Erkin Vohidov, poetic style, artistic expressive devices, simile, metaphor, semantic harmony, poetic thought, imagery.

Erkin Vohidov o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, u nafaqat iste'dodli shoir, balki dramaturg, adabiy tarjimon va jamoat arbobi sifatida ham tanilgan. Shoir ijodi o'zining badiiy mukammalligi, teran falsafiy mazmuni va ayniqsa, so'z tanlashdagi yuksak mahorati bilan ajralib turadi. Uning she'riy satrlarida samimiy tuyg'ular, inson qalbining nozik kechinmalari va hayot haqidagi chuqur mushohadalar badiiy jihatdan nihoyatda ta'sirchan ifodalanadi. Shoir har bir so'zni sinchkovlik bilan tanlaydi, unga o'ziga xos badiiy jilo beradi va she'riy

san'atlardan mohirona foydalanadi. Shu jihatdan uning ijodi o'zbek she'riyatida so'z san'atining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Shoirning so'z qo'llash mahoratini uning "Sevgi" nomli she'rida ham yaqqol ko'rish mumkin:

Tushdim chog'i men ham domingga,
Ezgu hislar baxsh etding menga,
Hayotimga zar lavha bo'lding,
Ilk she'rimga sarlavha bo'lding,
Xayollarim ulfatdir senga.

Sevgi mavzusi jahon va o'zbek adabiyotida eng ko'p kuylangan mavzulardan biridir. Deyarli har bir ijodkor bu tuyg'uni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Mazkur misralarda ham shoir sevgini inson hayotiga go'zallik baxsh etuvchi, ilhom manbai bo'lgan muqaddas tuyg'u sifatida tasvirlaydi. Shoir "hayotimga zar lavha bo'lding" degan ifoda orqali sevgining o'z hayotidagi alohida o'rnini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, "ilk she'rimga sarlavha bo'lding" degan misra shoir ijodining boshlanishida ham sevgi tuyg'usi muhim ilhom manbai bo'lganini ko'rsatadi. Erkin Vohidov she'riyatida tashbeh va o'xshatishlarning o'ziga xosligi ham diqqatga sazovordir. Shoir tabiat manzaralarini tasvirlashda ham o'ziga xos badiiy topilmalar yaratadi. Masalan, quyidagi misralarda shoirning betakror tashbehlari yaqqol ko'zga tashlanadi:

Kun tog' o'rkachiga tirmashar asta,
Novvot qoyalarda yaltiraydi qor.

Bu misralarda "tog' o'rkachi" va "novvot qoyalari" kabi obrazli ifodalar shoirning tasviriy tafakkuri nihoyatda boy ekanligini ko'rsatadi. "Tog' o'rkachi" iborasi tog' cho'qqisini jonli mavjudotga o'xshatib tasvirlash orqali manzaraga jon bag'ishlaydi. "Novvot qoyalarda yaltiraydi qor" misrasida esa qorning oppoq rangini novvotga qiyoslash orqali juda nafis badiiy o'xshatish yaratilgan. Bunday tasvirlar shoirning so'z tanlashdagi nozik didini namoyon etadi.

Shoir ijodida an'anaviy obrazlarning yangicha talqin qilinishi ham muhim o'rin tutadi. Masalan, bulbul va gul obrazlari mumtoz she'riyatda juda ko'p uchraydi. Biroq shoir bu an'anaviy obrazlarni ham yangicha badiiy tasvir bilan boyitadi:

Borliq olam ko'zimga ming-ming
Go'zallikka to'lib ko'rindi.
Gullar menga oshiq bulbulning
She'r daftari bo'lib ko'rindi.

Mazkur misralarda shoir gulni oddiy go'zallik timsoli sifatida emas, balki oshiq bulbulning "she'r daftari" sifatida tasvirlaydi. Bu tasvir nihoyatda o'ziga xos bo'lib, gul va bulbul obrazlariga yangi poetik ma'no yuklaydi. Gul go'yo bulbulning his-tuyg'ulari bitilgan sahifaga aylanadi. Bu esa shoirning badiiy tafakkuri naqadar keng ekanini ko'rsatadi.

Erkin Vohidov she'riyatida so'z tanlash va ularni mazmuniy jihatdan uyg'unlashtirish alohida badiiy qiymat kasb etadi. Quyidagi she'r ham shoirning so'z qo'llash mahoratini yorqin namoyon etuvchi namunadir:

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
U bu so'z yondosh bo'lur:
Mohir-u mehr-u mahorat,
Olim-u ilm-u amal,
Oshiq-u ishq-u mashaqqat,
Shoir-u she'r-u shuur.

Mazkur misralarda shoir so'zlarni o'zaro mazmuniy uyg'unlik asosida guruhlab, har bir tushunchaning ichki mohiyatini ochib beradi. Masalan, "olim – ilm – amal" uchligi bilim egasi bo'lgan insonning ilmni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishi zarurligini anglatadi. "Oshiq – ishq – mashaqqat" orqali ishq yo'lining doimo sinov va mashaqqat bilan bog'liqligi ifodalanadi. "Shoir – she'r – shuur" birikmasi esa haqiqiy ijod uchun chuqur tafakkur zarurligini ko'rsatadi. Bu yerda shoirning so'z qo'llash mahorati shundaki, u har bir tushunchani mazmunan bir-birini to'ldiruvchi so'zlar orqali ifodalaydi. Natijada she'rda mantiqiy tizim va badiiy uyg'unlik yuzaga keladi. Shuningdek, uchliklarning bir xil sintaktik shaklda kelishi matnga ritmik va ohangdor tuzilish bag'ishlaydi. Oxirgi to'rt misrada esa asosiy badiiy san'at tanosub bo'lib, unga qo'shimcha ravishda takroriy-parallel tuzilish ham qo'llangan. Bu usul she'rning ta'sirchanligini yanada kuchaytiradi. Shoirning badiiy tafakkuri, ayniqsa, uning g'azallarida yanada yorqin namoyon bo'ladi. Masalan, quyidagi bayt ham shoirning so'z tanlashdagi mahoratini yaqqol ko'rsatadi:

Muhabbat tuxmin ekdim jonima, anduh samar bo'ldi,
Umidim shuki, qosid, yorga holimdan xabar bo'ldi.

Mazkur baytda shoir muhabbatni urug'ga qiyoslab, nihoyatda ta'sirchan badiiy metafora yaratadi. "Tuxm ekmoq" iborasi odatda dehqonchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lsa-da, shoir uni inson qalbiga ko'chiradi. Ya'ni oshiq o'z qalbiga muhabbat urug'ini ekanini bildiradi. "Anduh samar bo'ldi" misrasida esa muhabbat urug'ining hosili g'am bo'lgani aytiladi. Bu yerda "tuxm" va "samar" so'zlari o'zaro semantik bog'lanib, yagona badiiy tasvirni hosil qiladi. Shoir dehqonchilik leksikasiga mansub "tuxm" va "samar" so'zlari orqali muhabbatning o'ziga xos poetik metaforasini yaratadi. Muhabbat urug'i ekilib, undan g'am mevasi yetilishi oshiq qalbidagi iztirobni kuchli badiiy tasvir bilan ifodalaydi. Baytda "qosid", "umid" kabi so'zlarning qo'llanishi esa hijron va umid motivlarini kuchaytirib, uning badiiy ta'sirchanligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov o'zbek she'riyatida so'z san'atini yuksak darajaga ko'targan ijodkorlardan biridir. Shoir ijodida so'z tanlash, ularni o'zaro

uyg'un holda qo'llash va badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Uning she'rlarida har bir so'z o'z o'rnida qo'llanib, chuqur ma'no va kuchli badiiy ta'sir hosil qiladi. Shoir tashbeh, metafora, tanosub kabi badiiy san'atlar yordamida oddiy fikrni ham yuksak poetik darajaga ko'tara oladi. Erkin Vohidov ijodida tabiat tasvirlari, sevgi tuyg'usi, insoniy kechinmalar va falsafiy mushohadalar o'ziga xos obrazlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, shoirning so'zlarni semantik jihatdan uyg'unlashtirish, yangi badiiy birikmalar yaratish hamda an'anaviy obrazlarga yangicha mazmun yuklashdagi mahorati uning poetik uslubini yanada boyitadi. Natijada shoir she'rlari o'quvchi qalbiga chuqur ta'sir etib, unda estetik zavq uyg'otadi. Shu jihatdan qaraganda, Erkin Vohidov ijodi o'zbek adabiyotida so'z qo'llash madaniyati va badiiy tafakkurning yuksak namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Shoir yaratgan badiiy obrazlar va poetik topilmalar o'zbek she'riyatining rivojiga munosib hissa qo'shadi va kelajak avlodlar uchun ham muhim adabiy meros bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент: Зарқалам, 2006. – 128 б.
2. Воҳидов Э. Ишқ савдоси. – Тошкент: Шарқ, 2000. 413 б.
3. Воҳидов Э. Ёшлик девони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМБ, 1969. – 75 б.
4. Internet materiallari